

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SIFATNI BOSHQARISH MUAMMOLARI

Safina Nafisa Talgatovna

*Andijon Mashinasozlik Instituti. Katta o'qituvchi
E-mail: nafisa.t.s@mail.ru. Tel.: +99(890) 3855888*

Ajimamatova Xurshida Abdunabi qizi

*Andijon Mashinasozlik Instituti Iqtisodiyot fakulteti
Menejment yo`nalishi 3-kurs K 10-20 guruh talabasi
E-mail: ajimatova2003@gmail.com
Tel.: +998(97) 2335665*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning sifat menejmentiga ko`rsatgan ta`siri va bu orqali kelib chiqishi mumkin bo`lgan muammolar yoritilgan. Shu bilan bir qatorda muammolarga yechimlar va takliflar ko`rsatilib, tahlil o`tkazilgan*

ПРОБЛЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация: *В данной статье описывается влияние цифровой экономики на управление качеством и проблемы, которые могут в связи с этим возникнуть. Кроме того, были представлены решения и предложения по проблемам и проведен анализ*

PROBLEMS OF QUALITY MANAGEMENT IN DIGITAL ECONOMY

Abstract: *This article describes the impact of the digital economy on quality management and the problems that may arise in connection with this. In addition, solutions and proposals on problems were presented and an analysis was made*

Kalit so`zlar: *Sifat boshqaruvi, raqamli iqtisodiyot, sanoat korxonalari, real sektor, islohotlar, kiber hujum, kadrlar salohiyati, inovatsiyalar, an`anaviy tizim, tovar partiyasi, dinamik ishlab chiqarish.*

Ключевые слова: *Качество производства, промышленные предприятия реальный сектор реформы кибератака инновации традиционная система партия товара динамичное производство*

Key words: *Quality management, digital economy, industrial enterprise, real sector, reforms, cyber attack, staff qualifications, innovations, traditional system, batch of goods, dynamic production.*

Kirish. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan XXI - asr hayotimizning har bir sohasida texnika va texnologiyalardan keng foydalanishga imkon yaratdi. Elektron, masofadan turib boshqariluvchi qurilmalar va tizimlar ommaga taqdim etilib, fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash yo`lida qo`llanilmoqda. Ayniqsa mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun alohida loyihalar ishlab chiqilgani jahon iqtisodiyotida katta burulish yasadi. Hech kimga sir

emaski, yurtimizda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish borasida keng islohotlar o'tkazilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning PF- 6079-son 05.10.2020“ Raqamli O'zbekiston -2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi farmonida:

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etilishi;

- 587 ming nafar kishini, shu jumladan “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtirilishi;

- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etilishi;

- raqamli iqtisodiyot sohasidagi yangi loyihalarni ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish to'g'risida qarorlarni qabul qilish, shuningdek, zarur hollarda hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari hamda “yo'l xarita”lariga tayyorlangan va kelishilgan loyiha hujjatlari asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- doimiy monitoring asosida elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishni yanada takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatidagi funksional jarayonlar va tartib-taomillarni optimallashtirish bo'yicha choralar ko'rish;[1]

kabi vazifalar ko'zda tutilgan bo'lib, davlatimizdagi har bir korxonada, tashkilot doirasida amalga oshirilmoqda. Tabiiyki ishlab chiqarish sohasidagi bunday o'zgarishlar tashkilot boshqaruviga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bu esa o'z navbatida ma'lum tushunmovchiliklar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa mahsulot sifati bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni boshqarishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin. Bu maqolada sifat boshqaruvidagi raqamli iqtisodiyot bilan bo'g'liq bo'lgan muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish uchun yechimlar qidiramiz.

Adabiyotlar tahlili. Sifat menejmenti modelining nazariy kelib chiqishi “Sifatni umumiy boshqarish (Total Quality Management, TQM)” nazariyasi asoschilari V.Shuxart, A.Feygenbaum, U.Deming, Dj.Djurana, K.Ishikavalarning tadqiqotlarida yotadi. Sifatni boshqarish nazariyasi Rossiya olimlari B.L.Bentsman, V.M.Larin, I.M.German, L.Yegorova, T.A.Salimova, L.I.Biryukova, O.Yu.Gordashnikova, S.A.Zaytsev, A.V.Gugelev, S.M.Vdovina, V.D.Dorofeyeva, D.A.Shevchuk, O.V.Aristov, V.I.Muxin va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonda sifat menejmentini takomillashtirishining umumiy muammolarini o'rganish bo'yicha maxalliy olimlarimizdan R.Ismatullayev, Sh.Turayev, N.X.Xalilov, M.Badalova, D.Raximova, J.Qambarov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Korxonada va tashkilotlarda raqamlashtirish muammolari bilan xorijiy olimlar Ye.F.Abdokushin, I.L.Avdeyeva, N.D.Guskova, A.Dolgin, V.V.Ilyinskiy, Ye.V.Levchenko shug'ullangan. Raqamlashtirishning korxonada faoliyati va sifat menejmenti tizimiga ta'siri natijalari bilan Rossiya Iqtisodiyot Oliy Maktabi, McKincey, “BCG-group” va Deloyt

Instituti shug`ullangan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sifat menejmenti tizimini rivojlantirish masalalari bilan rus olimi A.V.Gugelev o`z ishlarida shug`ullangan.

Natijalar. Ushbu maqolada bildirilgan fikrlardan O`zbekiston Respublikasi yengil sanoati korxonalarida foydalanish mumkin.

Muhokama. Hozirgi kunda mamlakatimiz sanoat tizimidagi birinchi va eng dolzarb bo`lgan muammo bu - sifat boshqaruvini biznes strategiyasining bir qismi deb qaralmasligidir. Tan olish kerakki ayrim korxonalar va tashkilotlar asosiy urg`uni foydani oshirish, marketing ishlariga qaratadilar, va o`z navbatida mahsulot sifatiga, sifat boshqaruviga bog`liq masalalar shundayligicha qolib ketaveradi. Aslida esa mahsulot sifatini oshirmasdan turib hech qanday natijaga erishish mumkin emas. Past sifatli yoki nomuvofiq mahsulotlar daromadni yo`qotishi, tovar qiymatini kamaytirishi, xarajatlarni oshirishi va samaradorlikni kamaytirishi mumkin. Haqiqatan ham sifatni yaxshilashni xohlaydigan korxonalar tashkilotning har bir jabhasini qamrab oladigan sifatga yo`naltirilgan kompaniya madaniyatini yaratish uchun vaqt va pul sarflashlari kerak. Ishlab chiqarilgan mahsulot qanchalik raqobatbardosh bo`lsa, bozorga kirib borishi shunchalik oson bo`ladi. Lekin ayrim hollarda bu masalaga ikkilamchi jarayon kabi baho berayotgan tashkilotlar ham bir talay. Bunga asosiy sabab “sifat menejmenti mahsulotlarni loyihalashtirmaydi, ishlab chiqarmaydi yoki sotmaydi” deb qaralishidadir. Ushbu mentalitet tufayli ko`plab korxonalar o`z resurslaridan foydalanayotganda sifatni umuman hisobga olmaydi. Ularning nazdida, sifat boshqaruvini takomillashtirish haqida hattoki fikr yuritish ham noo`rindir. Bunday dunyoqarash bilan sifatni modernizatsiya qilish u yoqda tursin bu jarayonni to`g`ri yo`lga qo`yib olish ham juda mushkul vazifadir. Sifatni boshqarishni elektron tarzda ishlab chiqish ko`plab korxonalar uchun keraksiz bir xarajat sifatida ko`rilib, an`anaviy tizimni maqullash holatlari ko`p kuzatilmoqda. Bu esa o`z navbatida raqamli iqtisodiyotga o`tish jarayonini sekinlashtiradi. Ushbu muammoga asosiy yechim qilib korxonalar rahbarlarining strategik menejment borasidagi bilimlarini mustahkamlashni, sifat to`g`risida kengroq tushunchaga ega bo`lishni, menejmlarning bilim salohiyatini oshirishni ko`rsatishimiz mumkin. Mahsulot ishlab chiqaruvchi firmalar jahon tajribalariga asoslangan holda tashkiliy struktura ishlab chiqsalar maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Ya`na bir hisobga olish kerak bo`lgan jihat borki istalgan davlat dastlabki o`tish bosqichida aynan shu muammoga to`qnash kelgan: informatsion texnologiyalar sohasidagi kadrlar yetishmovchiligi. Yurtimizga raqamli iqtisodiyot tushunchasi yaqinda kirib kelgani bois, dasturchilar va tizim yaratuvchilariga sezilarli ehtiyoj kuzatilmoqda. Bu esa elektron tizimlarni amalda qo`llash ancha ko`p xarajatlarni talab qilishi va mutaxasislarni kamligi tufayli tizimni yangilashni qiynlashtirishini bildiradi.

Bundan tashqari, O`zbekiston hududida elektr energiyasi va internet tezligi bilan bo`g`liq muammolar ham, korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayoniga o`z ta`sirini o`tkazmay qolmaydi. Sifatni modernizatsiya qilishda elektr ta`minoti uzluksiz berilishi juda muhimdir. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uzulish bo`lishi uning sifatiga katta zarar yetkazishi yoki butun bir Tovar partiyasini yaroqsiz holga keltirishi mumkin. Bu holat oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham yaqqol ko`zga tashlanadi. Albatta kadrlarning salohiyati va elektr energiyadagi tanqisliklar tom ma`noda korxonaning ichki muhitiga

bog`liq emas, lekin “risk” ya`ni tavakkalchilik darajasini pasaytirish uchun zaruriy chora tadbirlarni ko`rish foydadan holi bo`lmaydi. Internet tezligining pastligi esa bizga jahon tajribalarini amalda qo`llash imkoniyatini kamaytiradi. Misol uchun Yaponiyaning “Just in time” usuli ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga va kapitalimizning keraksiz tomonga yo`nalishini oldini olishga qo`l keladi. Bu usulda har bir resurs: xom ashyo yetkazilishidan tortib to mahsulotni sotishgacha bo`lgan jarayonda ishlab chiqarish vaqtida olib kelinadi. Bu bilan korxonada saqlash uchun sarflanadigan barcha xarajatlardan batamom qutuladi. Ortiqcha sotib olingan resurslar muammosi ham o`z - o`zidan bartaraf etiladi. Lekin bunday muhitni yaratish uchun sifatli internet kommunikatsiya tizimi zarur. Sifatni yaxshilamoqchi bo`lsak, mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi har bir omil ham sifatli bo`lishi zarur.

Keyingi raqamli iqtisodiyotga o`tishni qiyinlashtiruvchi muammo bu - tashkilotlardagi texnika texnologiyalarning ma`naviy yoki moddiy jihatdan eskirganligidir. Talabga javob bermaydigan stanok va uskunalar zamonaviy tizimda qo`llanilishi u yoqda tursin, an`anaviy tizimda ham pand bermoqda. Aksiga olib esa, joriy qilinayotgan dasturlar mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining holatiga to`g`ri kelmaydi. Asosiy kapitalni almashtirish - aylanma mablag`larning kamayishiga, vaqt o`tib esa korxonaning qo`shimcha xarajatlari hisobida zarani oshishiga olib kelishi mumkin. Shu o`rinda mahsulotni ishlab chiqarayotgan texnikaning tizimga mos kelmasligi oqibatida nuqsonli tovarlarning ko`payishi turgan gap. Kompaniyaning potentsial moliyaviy xavflarini oldini olish uchun byudjetni hisobga olgan holda uzoq muddatli strategiyaga ega bo`lish muhim o`rin tutadi.

Bundan tashqari, xodimlarning kompyuter savodxonlik darajasi borasida ham qator kamchiliklar mavjud. Ishlab chiqarishning barcha jarayonlari to`liq kompyuterlashgan tizimga o`tkazilsa; ya`ni xom ashyo yetkazib kelinishidan tortib mahsulot sotilgunga qadar bo`lgan davr mobaynidagi operatsiyalar texnikalar orqali amalga oshirilsa, ko`plab korxonalaridagi xodimlar talabga javob bermasligi oqibatida tizimda nosozliklar yuzaga kelishi, mahsulot sifatining pasayishi kabi holatlarga duch kelinishi mumkin. Va holangki, har qanday strategiya rejalashtirilganda emas balki amalga to`g`ri tadbiriq qilingandagina o`z samarasini beradi. Shuningdek tizimlarni ham ular qanchalik mukammal bo`lmasin to`g`ri ishlata olmasak, bu texnologiyalar oddiy raqamlar ketma ketligidan o`zga narsani anglatmaydi. Shu o`rinda yurtimizdagi raqamli iqtisodiyotga oid Respublika ww.stat.uz saytidan olingan ma`lumotlarga e`tiborimizni qaratsak, aniq xulosalarga ega bo`lamiz.

Jadval-1. Ma`lumotlar uzatish tarmog`i ko`rsatkichlari

/N	Ko`rsatkichlar	2019	2020	2021
.	Ma`lumot uzatuvchi tarmog`iga ulangan, internetni qo`shgan holda abonentlar soni, ming birlik	22457. 7	26437. 7	29500 .2
.	Internet tarmog`iga ulangan	16386. 2	19981. 0	22987 .2
.	Jismoniy shaxslar	15750. 8	19241. 3	22112 .1
.	Yuridik shaxslar	635.4	739.7	875.1

.	Internet tarmog`iga keng polosali ulanish bo`yicha abonentlar soni	725.4	1080.0	1457.
.	Internet tarmog`iga mobil aloqa orqali ulangan abonentlar soni	15651.	17946.	20991
		2	5	.8

Jadval-2. Mahalliy tarmoqqa ega bo`lgan korxonalar va tashkilotlar ulushi.

/N	Hududlar	2019	2020	2021
.	O`zbekiston Respublikasi	5.3	3.8	3.0
.	Andijon	3.1	2.2	1.3
.	Buxoro	5.3	4.1	3.2
4	Namangan	5.5	3.5	2.3
.	Toshkent	4.2	3.4	2.9
.	Farg`ona	4.1	2.5	2.0
.	Xorazm	4.6	3.2	2.3
.	Qashqadaryo	4.7	3.2	2.2
.	Samarqand	6.0	3.4	2.2
0.	Toshkent Sh.	7.9	6.8	5.7

Bundan tashqari, 2020 yilning birinchi choragida 65 IT-kompaniyalar IT-Park rezidenti maqomiga ega bo`lishdi.

Hozirgi kunda IT-Parkda 377 resident ro`yxatga olingan, shundan xorijiy sarmoyalar ishtirokida 14 ta kompaniya tashkil etilgan. Joriy yilning birinchi choragida 65 ta IT kompaniyalar IT Park rezidenti maqomini oldi, shundan 12 ta kompaniya 2020 yilda tashkil etilgan.

Rezidentlarning O`zbekiston Respublikasi mintaqalari bo`yicha taqsimlanishi:

1. Qoraqalpog`iston Respublikasi – 1
2. Andijon viloyati – 2
3. Buxoro viloyati – 7
4. Jizzax viloyati – 5
5. Qashqadaryo viloyati – 5
6. Namangan viloyati – 4
7. Navoiy viloyati – 1
8. Samarqand viloyati – 3
9. Sirdaryo viloyati – 1
10. Toshkent viloyati – 5

11. Farg'ona viloyati – 8
12. Xorazm viloyati – 7
13. Toshkent shahri – 328

Yurtimizda jami 377 nafar rezidentdan 232 nafari kompyuter dasturlari va konsalting sohasida faoliyat olib boradi, 67 rezident ma'lumotlarni joylashtirish, qayta ishlash va WEB portallari bo'yicha xizmatlarni taqdim etadi, 63 rezident dasturiy ta'minot ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlarni taqdim etadi va 9 rezident axborot texnologiyalarini o'qitish sohasida faoliyat olib borishadi. Rezidentlarda ishlovchilarning umumiy soni 2020 yil 1 aprel holatiga 4 144 kishiga yetdi, ulardan 15 nafari chet el fuqarolaridir. [2]

Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibiki davlatimizdagi korxonalarda transformatsiyaga o'tish jarayoni sekinroq amalga oshmoqda. Vaziyatdan kelib chiqadigan bo'lsak, tashqaridan resurs izlagandan ko'ra uni o'zimiz shakllantirishimiz foydaliroq bo'ladi. Korxonadagi kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash orqali ichki muhitni yaxshilab sifatni oshirishimiz va mahsulotimizning raqobatbardoshlik darajasini ko'tarishimiz mumkin. Raqamli transformatsiya ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi va yangi boshlovchi jamoaga ega bo'lish o'tish bosqichida ishni qiyinlashtiradi.

Undan tashqari, tizim xavfsizligi ham korxonalar va tashkilotlarni qiynab kelayotgan, muammo hisoblanadi. Online tarzda sifat boshqaruv tizimlarida mukammal xavfsizlik yo'lga qo'yilmasa, korxonadagi kapitalning o'g'irlanish holatalari yuzaga kelishi mumkin. Hakerlar tomonidan amalga oshirilgan kiber hujumlar natijasida tashkilotlardagi qimmatli qog'ozlar va korxonalarining ichki siri hisoblangan maxfiy ma'lumotlar qo'ldan ketmoqda. Barcha texnologiyani amalga oshirish kiberxavfsizlikni o'z ichiga olgan rejadan boshlanishi kerak. Sog'lom kiberxavfsizlik rejasi ishlab chiqaruvchilarga nafaqat joriy xavfsizlik protokollarini aniqlash va yaxshilashga yordam beradi, balki ularni kelajakdagi xavflarni boshqarish uchun joylashtiradi.

Xulosa. Ushbu ma'lumotlar va fikrlardan quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin. Sifat menejmenti biznesimiz strategiyasining bir qismi bo'lib, bozorda o'z o'rnimizga ega bo'lishimiz uchun xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sifatni boshqarishda ma'lum qiyinchiliklarga va muammolarga duch kelishimiz mumkin. Jumladan:

- Malakali kadrlar kamligi, mavjud potensial kadrlar salohiyati va xodimlarimizning kompyuter savodxonligi darajasi bilan bo'g'liq bo'lgan muammolar;
- Korxonadagi xodimlarning yangiliklarni qabul qilmaslik holatlari
- Texnika texnologiyalarning ma'naviy eskirganligi.
- Tizim havfsizligi, turli kiber hujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi;
- Innovatsiyalardan foydalanish darajasi pastligi kabi holatlar sifatni modernizatsiya qilishda asosiy to'qlardan biridir.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta takliflarni keltirib o'tsak:

- Korxonadagi mavjud resurslardan foydalangan holda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning kompyuter savodxonligini oshirish;
- Ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish va ularni kerakli yonlashga sarflash;
- Erkin yollash orqali soha mutaxassislarining xizmatidan foydalanish;

- Tavakkalchilik darjasini pasytirish maqsadida korxonalar infratuzilasi yaxshilash chora tadbirlarini ko`rish;
- Korxonalar ichki muhitida to`liq shaffoflikka erishish uchun tashkiliy strukturani to`g`ni yo`lga qo`yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning PF- 6079-son 05.10.2020 “ Raqamli O`zbekiston -2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora tadbirlari to`g`risidagi farmoni
2. O`zbekiston Respublika Davlat statistikasi qo`mitasi “Raqamli iqtisodiyot sohalar va tarmoqlar bo`yicha” statistikasi
3. “Digitalization and Quality Management” jurnal 2020-yil.
4. “O`zbekistondagi Raqamli iqtisodiyot holati” maqola
5. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Современные проблемы управления качеством на предприятиях лёгкой промышленности в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 81-83p. [<https://colloquium-journal.org/wp-content/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1.pdf>]
6. Халилов Н.Х., Сафина Н.Т. «Роль цифровизации в развитии социально-экономических систем в Республике Узбекистан». Colloquium-journal №15 (138), 2022 Część 1 (Warszawa, Polska). (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480) 83-86p. [<https://colloquium-journal.org/wp-content/uploads/2022/06/Colloquium-journal-2022-138-1.pdf>]
7. Khalilov Nurullo Khamidillayevich, Safina Nafisa Talgatovna, “Development of the quality management system of industrial enterprises-the main factor of increasing the competitiveness of products”. “World Economics and Finance Bulletin”, 2022. <https://www.scholarexpress.net/>.
8. Bakhodir Abdullaev, Ziyoydin Israilov, Alisher Sotvoldiev, Muhiddin Hojiboev, & Mukhamadieva Makhliyokhon. (2023). Leading research trends on innovation funding: a bibliometric analysis approach. <https://doi.org/10.5281/ZENODO.7656995>.
- 9.
10. www.lex.uz
11. www.stat.uz
12. www.Cholarship.com